

**GILAMCHILIK SAN'ATI — XALQ MA'NAVIYATI VA MADANIY
MEROSINING KO'ZGUSI**

*O'zbekiston amaliy san'at va
hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi*
Djalalova Gavxar Tashpulatovna

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston gilamchilik san'atining kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda gilamchilikning chorvachilik va ko'chmanchilik madaniyati bilan uzviy bog'liqligi, to'qimachilik texnikalarining tarixiy shakllanishi hamda tabiiy bo'yoqlardan foydalanish an'analari yoritilgan. Landro va Pikering asarlarida Markaziy Osiyo gilamchilik san'atining o'ziga xos jihatlari – naqshlar murakkabligi, rang uyg'unligi va mustahkamligi chuqur tahlil etilgan. Maqolada shuningdek, gilamchilikning ijtimoiy, estetik va ma'naviy qadriyatlar tizimidagi o'rni ham yoritilib, bugungi kunda bu san'at turini saqlash va rivojlantirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqiladi.*

Annotation. *This article explores the origins, historical development, and cultural significance of Uzbekistan's carpet weaving art. It highlights the deep connection between carpet making, pastoral life, and nomadic traditions, as well as the evolution of weaving techniques and the use of natural dyes. Landro and Pickering's research is discussed in detail, emphasizing the unique features of Central Asian carpets such as durability, geometric complexity, and harmonious color design. The article also examines the social, aesthetic, and spiritual importance of carpet weaving and underlines the need to preserve and modernize this traditional art form in contemporary society.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются происхождение, этапы развития и культурное значение искусства ковроткачества Узбекистана. Особое внимание уделяется тесной связи ковроткачества с пастушеской и кочевой культурой, формированию ткацких техник и*



традициям использования природных красителей. В трудах Ландро и Пикеринга подробно анализируются характерные особенности среднеазиатских ковров – их прочность, сложность геометрических узоров и гармония цветовой палитры. В статье также освещается социальная, эстетическая и духовная роль ковроткачества, а также подчеркивается важность сохранения и развития этого вида искусства в современных условиях.

Kalit so‘zlari: *Gilamchilik san’ati, tarix, an’ana, tabiiy bo‘yoqlar, jun, ipak, paxta, to‘qish usullari, madaniy meros, Landro va Pickering, Markaziy Osiyo*

Key words: *Carpet weaving art, history, tradition, natural dyes, wool, silk, cotton, weaving techniques, cultural heritage, Landro and Pickering, Central Asia.*

Ключевые слова: *Искусство ковроткачества, история, традиция, натуральные красители, шерсть, шелк, хлопок, техники ткачества, культурное наследие, Ландро и Пикеринг, Средняя Азия.*

“Yuksak – ma’naviyat yengilmas kuch” asarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov: El-yurtimiz o‘zining ko‘p asrlik tarixi davomida bunday mash’um xatarlarni necha bor ko‘rgan, ularning jabrini tortgan. Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma’naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shu fojiali o‘tmish, bosib o‘tgan mashaqqatli yo‘limiz barchamizga saboq bo‘lishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo‘lib yashashga da’vat etishi lozim. O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko‘p bora o‘z isbotini topgan. Gilamchilik san’ati chorvachilik va ko‘chmanchilik hayoti bilan chambarchas bog‘liq holda qadimdan rivojlanib kelgan. Dastlab faqat ko‘chmanchilar gilamchilik bilan shug‘ullanib kelgan. Sababi, ularning asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lgan va ularda gilam to‘qish uchun yetarlicha materialga ega edilar. Shuningdek, o‘troq aholi asosiy xo‘jaligi dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar. Keyinchalik bu hunar yanada o‘troq dehqon aholisi orasida keng tarqaldi. Gilam qachon paydo bo‘lganini aniq aytish qiyin, chunki u tayyorlanadigan xomashyolar oson yemiriluvchi bo‘lgani sababli qadimiy



gilamlar bizgacha yetib kelmagan. Arxeologlar arxeologik qazuvlar davomi gilam to‘qish uchun ishlatiladigan asboblarni topishgan. O‘zbekistonda miloddan avvalgi V–VI asrlarga tegishli qadimgi gilamlar Oltoy tog‘li hududlarida topilgan. Muz ostida saqlanib qolganligi sababli ular yaxshi holatda saqlangan.

Landro va Pikering o‘z tadqiqotlarida Markaziy Osiyo gilamchilik an‘analari, ularning tarixiy ildizlari va madaniy ahamiyatini atroflicha yoritib berganlar. Ularning asarlarida bu hudud gilamlarining asosiy o‘ziga xos jihatlari – mustahkamligi, nafisligi va murakkab geometrik naqshlari alohida ta’kidlanadi. Mualliflar gilam to‘qishda qo‘llanilgan turli texnikalar, xomashyo turlari hamda tabiiy bo‘yoqlarning ishlatilish usullarini batafsil bayon qilganlar. Shuningdek, ular gilamchilikning ijtimoiy va iqtisodiy kontekstini ham o‘rganib, to‘quvchilarning hayoti, mehnat jarayoni va ularning jamoalari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlarni keltiradilar. Shu jihatdan Landro va Pikeringning ishlari Markaziy Osiyo madaniy merosining muhim bir tarmog‘i – tekis to‘qilgan gilamlar tarixini hujjatlashtirish va qadrlash yo‘lida katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bronza davrida (taxminan miloddan avvalgi 3000–1200-yillar) Markaziy Osiyo aholisi murakkab to‘qimachilik texnikalarini o‘zlashtira boshlagan. Amudaryo havzasidagi arxeologik topilmalardan to‘qilgan mato bo‘laklari va to‘qimachilik asboblari aniqlangan bo‘lib, ular qadimiy hunarmandchilikning rivoji darajasidan dalolat beradi. Bu matolar, asosan, qo‘y junidan yoki zig‘ir tolalaridan tayyorlangan bo‘lib, o‘sha davr san’atining nozik didini va texnik mahoratini namoyon etadi.

Temir davrida (miloddan avvalgi 1200–600-yillar) esa metallni qayta ishlash va qurolsozlikdagi yutuqlar tufayli to‘qimachilik yanada rivoj topdi. Vertikal dastgohlarning yaratilishi to‘quvchilarga yanada murakkab va mustahkam matolar to‘qish imkonini berdi. Shu bilan birga, o‘simlik va hasharotlardan olinadigan tabiiy bo‘yoqlarning keng qo‘llanilishi kelajakdagi boy gilamchilik an‘analariga asos soldi.

Islomiy o‘rta asr manbalari ham gilam to‘qish san’atining yuksak darajada bo‘lganini tasdiqlaydi. X asr tarixchisi Narshaxiy o‘zining mashhur “Buxoro tarixi” asarida “Bayt-ut-tiroz” deb atalgan yirik ustaxonalarda yozuvli naqshlar bilan



bezatilgan gilamlar to‘qilganini yozadi. Narshaxiy qayd etgan bu gilamlar keyinchalik Saljuqiylar davriga oid (XII–XIII asrlar) Konya gilamlariga o‘xshash bo‘lgan. Transaksoniyada (hozirgi Markaziy Osiyo hududi) shahar gilam ustaxonalari mavjudligi haqidagi yagona yozma manba ham aynan Narshaxiy asaridir. Biroq o‘sha davrda gilamchilik asosan dasht ko‘chmanchilari va qishloq aholisi orasida rivojlangan edi.

1404-yilda Temur saroyiga tashrif buyurgan ispan elchisi Ruy Gonsales de Klavixo o‘z kundaliklarida oltin iplar bilan to‘qilgan, nafis naqshlarga ega gilamlarni hayrat bilan tasvirlab o‘tgan. Uning qaydlari orqali biz Temuriylar davrida gilamchilik san’ati nihoyatda yuksak darajada rivojlanganini, bu buyumlar saroy hashamatining ajralmas qismi bo‘lganini bilib olamiz.

O‘zbekiston hududida gilamchilik san’ati asrlar davomida shakllanib, xalqning turmush tarzi, estetik didi va ma’naviy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan. To‘qilish usuliga ko‘ra, gilamlar tukli va tuksiz turlarga bo‘linadi. Har ikki turda ham o‘ziga xos texnik yondashuv, bezak elementlari va rang uyg‘unligi mavjud. Tukli gilamlar ko‘proq shahar markazlarida, yuqori mahorat talab qiluvchi usullarda tayyorlangan bo‘lsa, tuksiz gilamlar (palas, zili, cho‘girma) asosan qishloq joylarda, xonadonlarda to‘qilgan. Ushbu turlar orasida mintaqaviy uslublar alohida o‘rin tutadi. Masalan, Buxoro, Shahrisabz, Urgut, Nurota, Bulung‘ur kabi markazlar o‘zining takrorlanmas naqshlari, kompozitsiyasi va rang uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Qoraqalpog‘iston, Xorazm va Jizzax viloyatlarida ham gilam va kigiz to‘qish san’atida o‘ziga xos an’analar shakllangan. Bu hududlarda tayyorlangan gilamlar naqshlarning ramziy mazmuni, geometrik shakllarning muvozanati va tabiiy bo‘yoqlarning jilosi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Surxondaryo viloyati gilamchilik an’analari o‘zining bog‘lama (cho‘girma) usuli bilan mashhur. Ushbu gilamlarda xalqning diniy tasavvurlari, e’tiqodlari va tabiat bilan uyg‘unlik haqidagi qarashlari mujassam etilgan. Har bir naqsh, rang va kompozitsiya elementi xalqning qadimiy dunyoqarashini, estetik didini va hayot falsafasini aks ettiradi. Bog‘lama gilam to‘qish murakkab jarayon bo‘lib, bir dona gilam uchun o‘rtacha 12–14 kg ip sarflangan. Toshama (yog‘och taglikdagi kigiz)



tayyorlashda ham jundan foydalanilgan: jun tozalanib, taralib, keyin rang berilib, naqsh va gullar joylashtirilgan. Naqshlarda asosan, romb va xochsimon shakllar ishlatilgan. Keyin ustiga suv sepilib, jun qatlami o'ralib, tizzalar yordamida siqilgan. Kuchli jismoniy mehnat talab etganligi sababli bu ish asosan, yosh yigitlar tomonidan bajarilgan. Bir necha marta takrorlanadigan ushbu jarayondan so'ng mahsulot tayyor holga kelgan.

Tukli gilamlar Sharq to'qimachilik san'atining eng yuksak namunasidir. Ularning asosiy belgisi – tugunlash texnikasi bo'lib, bu usul gilamning mustahkamligi, nafisligi va estetik ko'rinishini belgilaydi. Har bir tugun ikki asos ipi atrofida alohida bog'lanib, kesiladi va maxsus taroq yordamida zich qilib siqiladi. Tugunlarning zichligi – ya'ni bir kvadrat desimetrdagi tugunlar soni – gilamning sifati va naqshlarining murakkablik darajasini aniqlovchi muhim omildir. Gilam to'qish jarayoni bir necha bosqichdan iborat: dastgohni tayyorlash, tugun qatorlarini bog'lash, arqoq ipni kiritish, urib siqish, qirqish va yuvish. Har bir bosqichda mahorat, sabr-toqat va did talab etiladi. Tugun turi va zichligidagi farqlar esa mintaqaviy an'analarga bog'liq bo'lib, shahar markazlarida to'qilgan gilamlar odatda zichroq va mukammalroq, qishloq joylarda tayyorlangan gilamlar esa biroz bo'shroq tuzilishga ega bo'ladi. Qo'l bilan to'qilgan gilamlarda asosan, ikkita tugun turi qo'llaniladi: turkcha va forsha tugunlardan iborat edi. Turkcha tugun, ya'ni Ghiordes tuguni, simmetrik tuzilishga ega bo'lib, gilamning mustahkamligini oshiradi. Bu tugun ikki asos ipi atrofida o'ralib, ip markazdan tortib chiqiladi. U Turkiyaning Ghiordes shahri nomi bilan ataladi va mustahkam gilamlar to'qishda keng qo'llanadi. Forscha tugun esa assimetrik shaklda bo'lib, yanada nozik va murakkab naqshlarni yaratishga imkon beradi. U bitta asos ipi atrofida o'raladi va yonidagi ip ostidan o'tkaziladi, natijada silliqroq va nafis tuzilma hosil bo'ladi. Bu tugun Eronning Senneh (hozirgi Sanandaj) shahri nomi bilan bog'liq bo'lib, bezakli, nafis gilamlar to'qishda ishlatiladi.

Markaziy Osiyoning, xususan, Kungrat ayollari orasida to'qimachilik qadimdan rivojlangan. Ular urmak deb atalgan gorizontal, tor valli to'quv dastgohlarida gilam to'qiganlar. Bunday dastgohlar ko'chma bo'lib, ularni qisqa



vaqt ichida oʻrnatish yoki yigʻishtirish mumkin boʻlgan. Toʻqilgan tasmalar kengligi odatda 40–50 sm, uzunligi esa mahsulotning turi va maqsadiga bogʻliq edi. Tayyor boʻlgan tasmalar keyinchalik bir-biriga tikilib, yagona gilam holatiga keltirilgan. Shu tariqa, tukli gilamlar yaratilishida texnik aniqlik, material tanlovi, boʻyoq sifatining tabiiyligi va toʻquvchining estetik didi uygʻunlashib, har bir gilamni noyob sanʼat asariga aylantiradi. Markaziy Osiyo xalqlarining gilamlari naqshlarining aniqligi, bezaklaridagi har bir detalning ramziy maʼnoga ega ekani va ranglarning uygʻunligi bilan ajralib turgan. Gilamlarda qoʻllanilgan sariq va qizil ranglar otashparastlik davrida muqaddas deb hisoblangan. Moviy, qora, sariq va oq ranglar ikkinchi darajali ranglar sifatida ishlatilgan. Ayniqsa oq rang poklik, begʻuborlik va osmon timsoli sifatida qadrlangan. Ustalar har bir rangni mohirlik bilan uygʻunlashtirganlari sababli gilamlar rang-baranglik va jozibadorlik kasb etgan. Oʻsimliklar, minerallar va hasharotlardan olinadigan tabiiy boʻyoqlar asrlar davomida gilamchilik sanʼatida keng qoʻllanib kelgan. Eng koʻp ishlatiladigan tabiiy manbalarga qizil rang uchun – ruyan (madder) ildizi, koʻk uchun – indigo oʻsimligi, sariq uchun – anor poʻsti, jigarrang uchun – yongʻoq qobigʻi kiradi. Tabiiy boʻyoqlarni tayyorlash jarayoni bir necha bosqichdan iborat: boʻyoq manbalarini yigʻish, quritish, soʻngra ularni qaynatish orqali rangni ajratib olish. Hosil qilingan boʻyoq eritmasi maxsus idishlarda iplarni boʻyash uchun ishlatiladi. Tabiiy boʻyoqlar oʻzining chuqur, tabiiy ohanglari va rangining uzoq vaqt saqlanib qolish xususiyati bilan qadrlanadi. Sunʼiy boʻyoqlarga nisbatan ular atrof-muhitga kamroq zarar yetkazadi, chunki tarkibida zararli kimyoviy moddalar mavjud emas. Shu sababli, tabiiy boʻyoqlardan foydalangan gilamlar nafaqat estetik jihatdan jozibador, balki ekologik jihatdan ham xavfsiz mahsulot hisoblanadi.

Oʻzbek gilamlarida ishlatiladigan jun, ipak va paxta tolalari har biri oʻziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi va gilamchilik sanʼatining sifati hamda bezak jozibasini belgilaydi.

Jun – Oʻzbek gilamchilik sanʼatining asosiy xomashyosi boʻlib, mahalliy zotli qoʻylardan olinadi. Bu qoʻylarning junning mustahkam tolalari bilan mashhur boʻlishi gilamlarning bardoshlilikini taʼminlaydi. Jun sifati hayvon zotiga, yashash



muhiti va ozuqaviy sharoitiga bog‘liq. Jun avval kir va yog‘dan tozalanadi, so‘ngra tolalarni tekislash va chalkashliklarni bartaraf etish maqsadida taraladi. Keyinchalik, taralgan jun qo‘lda yoki maxsus charxpalak yordamida ip holiga keltiriladi va to‘qishga tayyorlanadi. Kungrat ayollari ip tayyorlash uchun qo‘y va tuya juni ishlatilgan. Odatda qo‘y junining ikki turi qo‘llanilgan: birinchisi – bahorgi qirqim (o‘lik qirqim) jundan olinadigan yumshoq va uzun tolali jun, ikkinchisi esa – kuzgi qirqim (tirik qirqim) davrida olinadigan qisqa va qattiq jun bo‘lib, bu turdagi jun ip yigirishga yaramagan, asosan kigiz tayyorlashda ishlatilgan.

Ipak – nafisligi, yaltiroq jilosiga ega bo‘lishi va yorqin ranglarni o‘zida aks ettira olishi bilan qadimdan eng qimmatbaho material hisoblanadi. Ipak tabiiy oqsil tolasi bo‘lib, ipak qurti (pillakor) ning pillalaridan olinadi. Ipak olish jarayoni ipak qurti boqishdan boshlanadi – ular tut daraxti barglari bilan oziqlantirilib, pillasini o‘ray boshlaguncha parvarish qilinadi. Pilla to‘liq shakllangach, ular yig‘ib olinadi va serisin deb ataluvchi tabiiy modda yumshashi uchun qaynatiladi. So‘ngra pillalar yechilib, har bir pilla uzun, uzluksiz ipak tolani beradi. Ipakning mustahkamligi, nafisligi va yorqinligi uni bezakbop gilamlar to‘qishda muhim xomashyo qiladi.

Paxta esa gilam tuzilmasining asosi bo‘lib, arqoq va arpa iplarini yaratishda ishlatiladi. U ipak kabi nafis emas, jun kabi qalin emas, biroq o‘zining chidamliligi, silliqiligi va rangni yaxshi ushlab qolish xususiyati bilan qadrlanadi. O‘zbekistonda paxta asosan mahalliy sharoitda yetishtiriladi va qayta ishlanadi. Paxta tolalari hosildan so‘ng urug‘ va boshqa qo‘shimchalardan ajratiladi, tozalanadi, so‘ngra ip holiga keltiriladi. Shu tarzda tayyorlangan paxta iplar gilamning asosiy karkasini tashkil etadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, gilamchilik san’ati O‘zbekiston xalqining ko‘p asrlik madaniyati, turmush tarzi va ma’naviy qadriyatlarining ajralmas qismi sifatida shakllanib kelgan. Bu san’at turi chorvachilik va dehqonchilik madaniyatining uzviy bir qismi bo‘lib, xalqning badiiy tafakkuri, estetik didi va tarixiy xotirasini mujassam etadi. Har bir gilam – bu faqatgina maishiy buyum emas, balki xalqning ruhiy olami, urf-odatlarini, diniy tasavvurlari va hayot falsafasining ramziy ifodasidir. Prezident Islom Karimov



ta'kidlaganidek, **“O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q”**. Shu ma'noda, gilamchilik san'atini o'rganish va asrab-avaylash – milliy o'zligimizni anglash, tarixiy xotirani tiklash va ma'naviy merosni keyingi avlodlarga yetkazish demakdir. Landro va Pikering, shuningdek, boshqa tadqiqotchilar asarlarida qayd etilganidek, Markaziy Osiyo gilamlari o'zining mustahkamligi, geometrik naqshlarining murakkabligi va tabiiy bo'yoqlar uyg'unligi bilan ajralib turadi. Bu esa xalqning tabiat bilan uyg'un yashash falsafasini, go'zallikka intilishini va san'atga bo'lgan chuqur mehrini namoyon etadi. Bugungi kunda ham gilamchilik san'atini rivojlantirish, uni zamonaviy dizayn va texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish, shu bilan birga milliy an'analar va qadimiy uslublarni saqlab qolish – madaniy merosimizni boyitishning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Demak, gilamchilik – bu o'tgan avlodlarning ijodiy merosi, millatning estetik ongi va tarixiy xotirasi bo'lib, uni asrash va rivojlantirish har birimizning burchimizdi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Pardaboyeva S, Abdudayeva S. Development of carpet weaving in Uzbekistan.
2. Karimov. I. Yuksak – ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. «MA'NAVIYAT».2013/ B – 4
3. Khurshid Tukhtaev. Uzbek Carpets. Origins, techniques and modern innovations. 2023. P – 25
4. Binafsha.N. Qiz-gilam: A Unique Example of Carpet Weaving by Semi-Nomadic Uzbeks in the Southern Regions of Uzbekistan. Academia Via Serica, Keimyung University, 2023 P – 89
5. Umarhojiyev.H. The art and science of uzbek pile weaving:techniques, symbols, and identity. 2025. p-50